



“BUXORO ADABIY MUHITI: KECHA VA BUGUN”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
**ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO'LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G'OFUROV
NOMIDAGI
XO'JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

2. Kara, Mustafa. "Molla İlahi'ye Dair." Osmanlı Araştırmaları, Vol. 7–8 (1988): 365–392. İstanbul.
3. Kızıler, Hamdi. "Osmanlılarda İlk Yerel Manevi Oluşum: Hacı Bayram Veli ve Bayramiyye Ekolunun Anadolu'ya Etkisi." OTAM Ankara Üniversitesi Osmanlı Tarihi Araştırma ve Uygulama Merkezi Dergisi, no. 32 (June 2012): 67–80. https://doi.org/10.1501/Otam_0000000603.
4. Koç, Mustafa. "16. Yüzyıl Osmanlı Coğrafyasında Karanlıkta Kalmış Nakşî Ahrarı, Yesevi ve Kübrevî Şeyhleri." Kutadgubilic Felsefe-Bilim Araştırmaları Dergisi, no. 7 (2005): 211–254.
5. Kufralı, Kasım. "Molla İlahi ve Kendisinden Sonraki Nakşibendiyye Muhiti." İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi (1949): 129–151.
6. Öngören, Reşat. Osmanlılarda Tasavvuf: Anadolu'da Sufiler Devlet ve Ulema (XVI. Yüzyıl). İstanbul: Kitabevi, 2000.
7. Şimşek, Halil İbrâhîm. "Murâd Buhârî." Diyanet İslam Ansiklopedisi, Vol. 31. İstanbul, 2006.
8. Ünal, Mehmet, and Aliye Yılmaz. "Muhammed Murâd-ı Buhârî ve 'Risâle-i Nakşibendiyye' Adlı Eseri." Turkish Studies = Türkoloji Araştırmaları: International Periodical for the Languages, Literature, and History of Turkish or Turkic, Vol. 9, no. 3(2) (2014): 1535–1549.
9. Tanman, Bahâ. "Murad Buhârî Tekkesi." Dünden Bugüne İstanbul Ansiklopedisi, Vol. 5 (1994): 514–516.
10. Tekin, Zeki. "Şeyh Murat Tekkesi ve Vakıfları." Yüzüncü Yıl Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, no. 2 (2001): 427–451.
11. Torun, Ahmet Semih. "Şeyh Muhammed Murâd-ı Buhârî Tekkesi Haziresi Üzerine Bir Değerlendirme." Vakıflar Dergisi, no. 34 (2010): 125–161.
12. Tosun, Necdet. "Tasavvufta Hacegân Ekolü (XII–XVI. Asırlar)." PhD diss., Marmara Üniversitesi, 2002.
13. Yılmaz, Necdet. Osmanlı Toplumunda Tasavvuf: Sûfîler, Devlet ve Ulemâ (XVII. Yüzyıl). İstanbul: OSAV Yayınları, 2001.
14. Gülec, İsmail. "Yazilar." Accessed October 7, 2024. <https://www.ismailgulec.net/yazilar.php>.

ABU ALI IBN SINONING JON VA RUH HAQIDAGI QARASHLARI

Ibotova Madina,

Buxoro davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Abu Ali ibn Sinoning jon va ruh haqidagi falsaftý qarashlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, uning “Solomon va Ibsol” qissasidagi ramziy obrazlar orqali ilgari surilgan falsaftý qarashlarga ham munoabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: jon, ruh, jism, tana, nafs, hayot, o‘lim, “Solomon va Ibsol”.

Аннотация: В статье анализируююя философские взгляды Абу Али ибн Сина о душе и духе. Кроме того, уважаююя и философские взгляды, выдвинутые через символические образы в его рассказе «Соломон и Ибсол».

Ключевые слова: душа, дух, тело, плот, душа, жизнь, смерть, «Соломон и Ибсол».

Abstract. The article analyzes the philosophical views of Abu Ali ibn Sina about soul and spirit. In addition, the philosophical views advanced through symbolic images in his story "Solomon and Ibsol" are also respected.

Key words: soul, spirit, body, flesh, soul, life, death, "Solomon and Ibsol".

Islom va tasavvuf falsafasida eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biri jon va ruhdır. Qadimgi yunon falsafasidan tortib islom falsafasigacha ko‘plab faylasuflar ruhning mavjudligi, uning tabiat, tana bilan aloqasiga doir turli fikrlar bildirib kelingan. Biroq mazkur masalaga doir bahsu munozaralar hozirgacha to‘xtagan emas. Albatta, buning asosi Qur’oni karimdagı Isro” surasining 85-oyatida “Ruh Parvardigormning amridandir va ilmingizdan sizga ozginagina berilgandir”, deb ta’kidlab o‘tilgan.

Islom falsafasida ruhga doir izohlarda ruh va jon tushunchalariga keng o‘rin berilgan. Arab tilidan olingan ruh va jon tushunchalarini ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatilgan bo‘lsa-da, ularni bir-biridan farqluvchi jihatlari borligiga ham e’tibor qaratilgan.

Ruh tananing harakatlanishini ta’minlovchi faol prinsip bo‘lishi bilan birga, passiv va jonsiz tanaga ta’sir qiluvchi kuchdir. Bundan tashqari, “ruh inson va hayvonga tarqaladigan mohiyatdir. Jism va jismga mansub asbob tanani boshqaruvchi ruh quroli ma’nosida qo‘llangan.

Jon – diniy ibridoit tasavvurlarga ko‘ra, inson va hayvon tanasida bo‘ladigan, uyqu chog‘ida (vaqtinchal) yoki o‘lgan vaqtida tanadan chiqib ketadigan alohida ko‘zga ko‘rinmas ilohiy kuch, quvvat; *ruh* [7]; *jon* – tiriklik, hayot, kuch, quvvat, mador [4,71]; *jon* – ruh, tiriklik, hayot [6,587].

Ruh – kishilar hayotligida u bilan birga, vafotidan keyin esa tanadan chiqib, abadiy qoladigan ko‘zga ko‘rinmas narsa, kuch; arvo [8]; *ruh* – ilohiy nafas, Haqning tajalliyi [4,82]; *ruh* – arvo, xotira; tabiat, mijoz, ahvol; *jon*, nafas [6,637].

Ibn Sino rujni nozik jism, nozik modda va jismoniy modda deb ta’riflaydi. Ruh nozik va harakatchandir, u hayotning mazmunidir. Suv tana ozuqasi bo‘lgani kabi havo ham ruhning ozuqasi sifatida ko‘riladi.

Abu Ali ibn Sinoning “Shifo” kitobi va “Tib qonunlari” asarlarida islom va tasavvuf falsafasining o‘zagi bo‘lgan jon va ruh haqidagi qarashalar o‘ziga xos talqin qilingan. U “Tib qonunlari” asarida “Gavdadagi eng issiq narsa ruh va ruhning paydo bo‘lish o‘rni yurakdir”, deydi [1,17]. Ibn Sino rujni inson tanasi ichida joylashgan, lekin u bilan chegaralanmagan deb hisoblaydi. U hayot davomida ruh tana bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, u bilan cheklanmaydi va jismoniy cheklardan oshib ketishi mumkin, deb tushuntiradi.

Ibn Sino inson aqliy tafakkur va ma’naviy poklanish orqali Illo bilan ittifoqqa erishishi, aql-idrokni o‘stirish va rujni ongning yuqori darajalariga ko‘tarish orqali odamlar voqelik mohiyatini va undagi o‘z o‘rnini tushunishga yaqinlashishi mumkin,

deb ta'kidlaydi olim. “*Ruh – shamchiroqqa, bilim – ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog‘duga, Allohnning zakosi – moyga o‘xshaydi. Shamchiroq yonishdan to ‘xtamas ekan – sen tiriksan. Agar u o‘chsa – sen halok bo‘lasan*”-, deydi Ibn Sino [2]. Bu bilan inson ruh bilan tirik ekanligini yana bir bor qayd qiladi. Faylasuf olim “Donishnoma” asarida jon (ruh)ga ta’rif berib shunday yozadi: “*Jon tanaga joylashgan, ammo tananing holati emas. Jon tana uchun hayotiy kuch bo‘lib, uni harakatga keltiradi, qon tomirlaridagi qonni haydab, barcha a’zolarini ham harakatga keltiradi*” [5,171]. Ko‘rinib turibdki, Ibn Sino jon (ruh)ning holati, harakati xususida o‘ziga xos falsafiy qarashlarni ilgari suradi. Islom falsafasida insonda hayvoniy va ongli ruh borligi, birinchisi jismoniy, ikkinchisi ilohiy ishqqa aloqador, degan g‘oya ilgari surilgan. Ibn Sino har ikkala ruhni tan olgan holda, har ikkalasi bir-biri bilan bog‘liq, deydi [10,344].

Sharq mumtoz adabiyotida ruh va uning sayri bilan bog‘liq motiv bir qator asarlarda talqin qilingan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino “Hayy ibn Yaqzon” hamda “Solomon va Ibsol” qissalarida ilk bora mazkur motivning badiiy talqinini uchratishimiz mumkin. Asardagi asosiy qahramonlar Solomon, Ibsol, Solomonning xotini. Har uchala obraz ramziy ma’noga ega. *Solomon inson (jism), Ibsol- ruh (aql), Solomonning xotini - nafs ramzi*. Ibn Sino Ibsol obrazida berilgan xislatlarni insonlarda ko‘rmoqchi bo‘ladi, shunga odamlarni da’vat qilib, uni ulug‘laydi. Insonning tabiatida bo‘ladigan shahvoniylar Salomonning xotini obrazi orqali beriladi. Bunda go‘yo istak, nafs, ya’ni xotin ruhni (aql)ni (ya’ni Ibsolni) egallamoqchi bo‘ladi. Qissada “O‘tgan zamonalarda Salomon degan kishining bir ota va bir onadan tug‘ishgin ukasi bor edi. Salomon ukasini o‘z o‘g‘liday tarbiyaladi va yurish-turishida nojo‘yalik topmay, unga odamlar biladigan va o‘rgatadigan hamma fanlardan ta’lim berdi. Tangri unga go‘zal ko‘rk va shaydoi husn berdi. Bola balog‘atga yetgach, shayton yangasining ko‘zini unga burib yubordi, ketidan ko‘nglini ham unga bog‘ladi. Xotin unga oshiq bo‘lib qoldiyu, o‘z dardini ichiga sig‘dirishga chiday olmadi” [3,76]. E’tibor berak, Ibn Sino inson jismidagi aql (ruh)ni yaratilganda toza, pok bo‘lishini yosh go‘dak timsolida talqin qiladi. Bu esa Qur’oni karimda ta’kidlaganidek, inson ruhi yaratilganda pok yaratilishi bilan bog‘liq diniy g‘oyani ta’kidlashga xizmat qilgan. Shu o‘rinda muallif yana bir ta’kidni berib o‘tadi:” Salomon degan kishining bir ota va bir onadan tug‘ishgan ukasi bor edi.” Bu bilan jism ruh bilan tirik ekanligini, ruhni tarbiyalashda jism ham mas’ul ekanligini qayd qilib o‘tadi. Jismsiz ruh yoki ruhsiz jismini tasavvuf qilib bo‘lmaydi. Salomon ukasi Ibsolda jamiki yaxshi fazilatlarni tarbiyalashga harakat qildi. Biroq uning kamolotiga ranna olishi mumkin bo‘lgan istaklar hamisha u bilan yonma-yon. Mana shunday istaklardan biri nafsdir. Ibn Sino nafs timsolini Salomonning xotini obrazida badiiy talqin qilgan. Nafsning ayol obrazida ham berilishida o‘ziga xos ma’no bor. Sharq adabiyotida ayollar go‘zalligi va latofati bilan ko‘klarga ko‘tarilib kuylangan bo‘lsa-da, ular makr-hiyla ramzi sifatida ham talqin qilingan. Ibn Sino mana shu an’anaga ijodiy yondashib, nafsning makri va hiylalarini ayol obrazida berib o‘tadi. Shu jihatdan ham alloma Nasiruddin Tusiy Ibsolning xotindan o‘zini olib qochishi, aql (ruh)ning o‘z olamiga tortishidir, deydi. “*Salomonning xotini, –deydi Tusiy yana, – nafs bilan birlashib ketib, bir shaxsga aylangan, istak va g‘azabga tortadigan badan*

quvvatlariga o‘xshatmadir. Xotinning Ibsolga bo‘lgan ishqisi esa uning boshqa quvvatlarini egallagandek, aqlini ham egallahsga bo‘lgan intilishiga o‘xshatmadir” [3,17]. Qissa davomida Salomonning xotini Ibsolni tuzog‘iga tushirish uchun juda ko‘p hiylalar o‘ylab topadi. Hatto uni o‘z singlisiga uylantirib qo‘yadi. Shunda ham o‘zi o‘ylagan maqsadga erisha olmaydi. Qissada Ibsol uzoq yurtlarga safar chiqib ketishida ham, albatta, ramziy ma’no bor. Tasavvufda safar – uzlat hisoblanadi. Bu jarayonda inson ruhi yana tarbiyalanadi, qusurlardan tozalanadi. U juda ko‘p yurtlarda bo‘ladi, mashaqqat tortadi, barchasiga bardosh berib, yana yurtiga qaytadi. Qaranki, yurtiga qaytib kelgan Ibsolni yana yangasining makrlari kutib turgan edi. Qissada birgina safar motivi orqali nafs insonning doimiy dushmani ekanligi, unga qarshi kurash insonning butun umri davomida amalga oshiriladigan jarayon ekanligiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida ruh masalasi insonning o‘zini bilishga intilishi, uning tana bilan munosabati, dunyo va oxirat, o‘lim va oxiratni tushunish doirasida muhokama qilingan. Bu ramziy hikoya uslubida yozilgan asarda inson o‘zining jismoniy va ma’naviy kuchlaridan ustun bo‘lishi, ruh-aql jismning mohiyatini belgilab beruvchi vosita sifatida talqin qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari (Uch jiddlik sayylanma). 1-jild. T. 1993.
2. Abu Ali inb Sino hikmatlari. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/abu-alii-bnsino-ikmatlari>.
3. Abu Ali ibn Sino. Solomon va Ibsol. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
4. Is’hakova Z. Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi tasavvufiy istilohlarning izohli lug‘ati. Namangan, 2023.
5. Ibn-Sina. Danish-name: Per. A. M. Bogoutdinova. Stalinabad, 1957. C.171
6. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. II jild. Fan, 1983.
7. <https://izoh.uz/word/jon>
8. <https://izoh.uz/word/ruh>
9. <http://web2.anl.az:81/read/page.php?bibid=vtls000034654>
10. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T.: "O‘zbekiston", 1997.

BUXORO ADABIY-MADANIY MUHITI TARIXIDAN

Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna,

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVI asr Buxoro madaniy-ma’rifiy va adabiy muhitining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek davlatchilagini yuz yil boshqargan shayboniy hukmdorlarning islohotchi va ijodkor sifatida, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi xizmatlari tarixiy manbalar asoosida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: XVI asr, shayboniylar, madaniy muhit, adabiyot, ilm-fan, me’moriy yodgorliklar.

<i>Islomova Soxibaxon</i> CHO'LPON NAZMIY MANBALARI TASNIFI.....	82
<i>Журақулов Мұхаммадамин</i> РИСОЛАИ “ТАЗКИРА АЛ-ХАТТОТИН” РОЧЙ БУХОРОЙ (САВДО БИХИШТЙ).....	87
2-sho'ba. BUXORO ADABIY MUHITI VA ISLOM SIVILIZATSIYASI	
<i>Sardor Kenjayev</i> AMIR TEMUR DAVRIDA BUXORO ADABIY MUHITINING XALQARO MUNOSABATLARGA TASIRI.....	93
<i>Sherxon Qorayev</i> BUHORO HUKMDORI AMIR SAYYID ABDULAHADXON SAROYI ADABIY MUHITI VA SHE'RIYAT KECHALAR.....	95
<i>Kemal Yavuz Ataman</i> MURAD BUHĀRÎ'NİN SEMERKAND'DAN İSTANBUL SEFERİ.....	101
<i>Ibotova Madina</i> ABU ALI IBN SINONING JON VA RUH HAQIDAGI QARAShLARI.....	106
<i>Marjona</i>	
Текст вывода не может распространяться более чем на одну строку!	
<i>Toshpulatova</i>	
BUXORO ADABIY-MADANIY MUHITI	
TARIXIDAN.....	109
<i>Jo'rayera Mohigul</i> XIX VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-TARIXIY SHAROITIDA ILMUY-ADABIY MUHIT.....	114
<i>Nuriddinova Shaxnoza</i> ISLOM SIVILIZATSIYASI VAKILLARINING TIBBIY EPONIMLARDA UCHRASHI.....	121
<i>Soybnazarov Navruzbek</i> THE ROLE OF BUKHARA IN PRESERVING ISLAMIC LITERARY HERITAGE.....	124
<i>Umarov Baxtishod</i> SOMONIYLAR DAVRI ADABIY MUHITIDA FORSIYZABON SHOIRLARNING TUTGAN O'RNI.....	129
<i>Xudoyberdi Meyliyev</i> TEMURIY HUKMDOR XALIL SULTON VA VALIY SHOIR XOJA ISMATULLO BUXORIY	132
<i>F.A. Yakubova</i> ISLOM SIVILIZATSIYASI DAVRIDA BUXORO ADABIY JARAYONI.....	139
<i>Муртазина Диана, Муртазин Эмиль</i> РОЛЬ БУХАРЫ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И НАУКИ.....	142
<i>Санобар Насруллаевна Мустақиллик</i> ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ БУХОРО ВИЛОЯТ БЎЛИМИ ФАОЛИЯТИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	146
<i>Atilla Nazim oglu Süleymanli</i> ERKIN VAHİDOVUN “SÖZ LƏTAFƏTİ” ƏSƏRİNİN RƏNGLİ TABLOSU.....	153
<i>Rahmatov Murodjon</i> MIRZU ULUG'BEK DAVRIDA BUXORO MADRASALARINING FAOLIYATI.....	160
3-sho'ba. BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI VA ADABIY TA'SIR MASALALARI	
<i>Oxunjon Safarov</i> SHOIR NAXLIY BUXORIYNING SHAXSIYATI VA SHE'RIYATI HAQIDA.....	163
<i>Mingbayev Nurlan, Rayxon Rasulova</i> MATN TAHLILI, TALQINI VA O'RGANILISHIDA BUXORO ADABIY MUHITINING O'RNI.....	169
<i>G'ayrat Murodov</i> SHOIRNING ILK TO'PLAMLARI.....	174